

O‘zbekistonda maktabgacha ta’lim va umumiy o‘rta ta’lim muassasalarida psixologik xizmatning tashkil etish imkoniyati va muammolari

Maxamadin Sotvoldiyevich Bannayev
mbannayev@mail.ru
NamDU

Annotatsiya: Ushbu maqolada O‘zbekiston ta’lim tizimida psixologik xizmatni amalga oshirish muammolari va istiqbollari haqida fikr yuritilgan. Psixologik xizmatni tashkil etish uchun mavjud to‘siqlar va ularni bartaraf etish uchun tavsiyalar berilgan.

Kalit so‘zlar: psixologik xizmat, psixologik maslahat, psixologik korreksiya, diagnostika, psixodiagnostika, psixologik tashviqot, psixologik profilaktika, psixologik-pedagogik konsilium, diagnostik-korreksion ishlar, o‘smirlik.

Opportunities and problems of organizing psychological services in preschool and general secondary education in Uzbekistan

Mahamadin Sotvoldiyevich Bannayev
mbannayev@mail.ru
NamDU

Abstract: This article discusses the problems and prospects of psychological services in the education system of Uzbekistan. Existing barriers to the organization of psychological services and recommendations for their elimination are given.

Keywords: psychological services, psychological counseling, psychological correction, diagnostics, psychodiagnosics, psychological propaganda, psychological prevention, psychological and pedagogical consultation, diagnostic and correctional work, adolescence

Mamalakatimizda keyingi yillarda psixologiya sohasida pedagog kadrlarni tayyorlash hamda amaliyotchi psixologlar faoliyatini qo‘llab-quvvatlashga oid bir qator ishlar amalga oshirildi. Hozirgi kunda maktabgacha ta’lim tizimida 2503 nafardan ortiq, xalq ta’limi tizimida 14272 nafardan ortiq pedagog-psixolog kadrlar faoliyat olib bormoqda.

Respublikaning 10 ta oliy ta'lim muassasasida "Psixologiya", 19 ta oliy ta'lim muassasasida "Pedagogika va psixologiya" ta'lim yo'nalishlari va mutaxassisliklari bo'yicha 5717 nafar dan ortiq talabalar tahsil olmoqda. Ushbu sohada qabul kvotalari yildan yilga oshirilib kelinmoqda.

O'tgan yillar davomida ta'lim tizimining barcha bosqichlarida yoshlarning psixologik holati diagnostikasiga ixtisoslashgan psixolog kadrlar hamda tashkilotlar mavjud bo'lsada, ularning faoliyatini muvofiqlashtirish va boshqarishni amalga oshiradigan yagona tuzilmaning mavjud emasligi psixologik xizmatlar faoliyati samaradorligining past darajada qolishiga ta'sir ko'rsatayotgani, aholiga psixologik xizmat ko'rsatish yetarlicha yo'lga qo'yilmaganligi oqibatida jamiyatda ijtimoiy-psixologik, jumladan, oilaviy muammolar (ajrimlar, oiladagi nizolar, ota-ona va farzand munosabatlari, qarindoshlar o'rtasidagi nikoh, erta tug'ruq), "ommaviy madaniyat"ning salbiy ta'sirlariga tobelik, o'z joniga qasd qilish holatlari davom etayotgani, Oliy ta'lim tizimida psixologiya sohasida tayyorlanayotgan amaliyotchi psixolog kadrlarning bilimlari umumiy bo'lib qolib, tor soha mutaxassislarini tayyorlash amaliyoti yo'lga qo'yilmagani, psixologiya sohasida magistratura va doktoranturaga qabul soni past darajada bo'lganligi oqibatida, milliy psixologiya maktabini shakllantirishda oqsoqlik vujudga kelgani, psixolog kadrlarning moliyaviy rag'batlantirilishi, aholiga psixologik xizmat ko'rsatuvchi markazlar faoliyatining qoniqarsiz ahvolda ekanligi ularga tajribali psixolog kadrlarni jalb qilish imkoniyatini bermayotgan edi.

Ushbu muammolarni hal etish uchun xorijiy tajribadan kelib chiqib, Oliy ta'lim yo'nalishlari va mutaxassisliklari klassifikatoriga ijtimoiy psixologiya, yoshlar psixologiyasi, psixologik xizmat faoliyatini boshqarish, oilaviy konsultatsiya va kouching kabi bakalavriat yo'nalishlari va magistratura mutaxassisliklar kiritildi. Respublikaning chekka hududlarida amaliyotchi psixologlarga bo'lgan ehtiyojni hisobga olgan holda har yili psixologiya ta'lim yo'nalishi bo'yicha talabalarni davlat granti asosida maqsadli qabul qilib kelinyapti. Oliy ta'lim muassasalarining magistratura bosqichida psixologiya bo'yicha mutaxassisliklar kvotalarini keskin oshirildi.

Ayni paytda ta'lim jarayonida psixologik xizmatga ehtiyoj sezilarli darajada ortdi. Sababi, pandemiya davrida insonlarda ruhiy zo'riqish, stress holatlari, qo'rquv, internet va gatjetlarga tobelik kuchaydi. Shuning uchun ham ta'lim jarayonida psixologlar faoliyatini rivojlantirish lozim bo'ladi.

I.V.Dubrovina va X.Y.Liyets, Yu.L.Sierdlarning ko'p yillik tadqiqotlari natijasi o'laroq, umumta'lim maktablarida psixologik xizmatning joriy etilishi bu boradagi MDH mamlakatlarida qo'yilgan ilk qadam ekanligini alohida qayd etish mumkin. Qolaversa, o'zbek olimlaridan E.G'.G'oziyev, M.G.Davletshin, G'.B.Shoumarov, B.R.Qodirov, R.Z.Gaynutdinov, V.M.Karimova, N.A.Sog'inovlar ham O'zbekiston

o'рта umumta'lim maktablari va oila tizimlarida psixologik xizmatni joriy etish borasida olib borayotgan qator nazariy-ilmiy va amaliy-uslubiy ishlari Respublikamizda psixologik xizmatni joriy etish va rivojlantirish uchun ma'lum darajada asos bo'lmoqda. [2.18].

O'zbekiston ta'lim muassasalarida psixologik xizmat quyidagi yo'nalishlarda amalga oshiriladi:

1. Psixologik tashviqot
2. Psixologik profilaktika
3. Psixologik maslahat
4. Psixologik-pedagogik konsilium
5. Diagnostik-korreksion ishlar

Biz kuzatishimiz natijasida maktabgacha ta'lim va umumiy o'рта ta'limda psixologik xizmatni samarali tashkil etish uchun bir necha muammolar xalaqit beradi.

Jumladan, maktabgacha ta'lim tashkilotida:

- psixolog bolalar bilan faoliyatni kunning qaysi vaqtida amalga oshirilishi lozimligi haqida hozirgacha aniq ko'rsatma mavjud emas;

- kunlik mashg'ulotlar jadvalida psixolog uchun alohida vaqt ajratilmagan;

- ota-onalar uchun psixologik maslahatni qaysi payt amalga oshirish kerak?

Maktabgacha ta'lim tashkiloti psixologi ish rejasini tuzishda quyidagi maqsadlarni belgilab olishi maqsadga muvofiq:

a) 6 yoshli bolalarni maktab ta'limiga tayyorlashda psixologik muammolar;

b) bolalarni maktabga pedagogik-psixologik jihatdan tayyorlashda tarbiyachi va psixologning hamkorligi;

c) maktabgacha ta'lim tashkilotlarida iqtidorli bolalar bilan ishlash;

d) maktabgacha ta'limga qo'yiladigan davlat talablarida ijtimoiy-hissiy rivojlanish ko'rsatkichlari;

e) maktabgacha ta'lim tashkiloti psixologi ishlarini rasmiylashtirish, hujjatlar bilan ishlashda axborot texnologiyalarining o'rni.

Maktablarda psixologik xizmatni samarali amalga oshirish o'quvchilarni kelgusida ruhiy va ma'naviy rivojlanishiga munosib hissa qo'shadi. Ayniqsa o'smirlar va o'spirinlarda bo'ladigan jismoniy va fiziologik o'zgarishlar ularning ruhiyatiga ta'sir ko'rsatmay qolmaydi. O'quvchilar o'zlari buni anglab yetishga qiynaladilar.

Hozirgi o'smirlar o'tmishdoshlariga nisbatan jismoniy, aqliy va siyosiy jihatdan birmuncha ustunlikka ega. Ularda jinsiy yetilish, ijtimoiylashuv jarayoni, psixik o'sish oldinroq namoyon bo'lmoqda. Shu sababli bizda o'g'il va qizlarni 10-11 dan 14-15 yoshigacha o'smirlik yoshida deb hisoblanadi [3.177].

Maktabgacha ta'lim tashkiloti singari maktablarda ham psixologik xizmatni samarali tashkil etish uchun to'siq bo'layotgan omillar bor. Masalan, maktab fanlariga psixologiyaga oid fan kiritilmagan yoki psixolog uchun alohida soat ajratilmagan.

Shuning uchun psixolog psixodiagnostik ishlarni amalga oshirishda, psixologik trening mashg'ulotlarni o'tishda qaysidir fan mashg'ulotini buzishga majbur bo'ladi. Maktabda qarama-qarshi jins vakillari bilan psixologik maslahat ishlarini olib borish ham murakkablik tug'diradi. Ayniqsa, psixolog erkak kishi bo'lsa, o'quvchi qizlar o'z muammolarini aytgani qiynaladilar. Ko'p holatlarda esa aytmaydilar ham.

Global rivojlanayotgan davrda o'quvchi yoshlarni ruhiy salomatligini asrash davlat va jamiyatning muhim vazifalarimizdan biri deb o'ylaymiz. Maktabgacha ta'lim tashkiloti va umumiy o'rta ta'limda psixologik xizmatni samaradiligini oshirish uchun quyidagilarni tavsiya qilamiz:

Maktabacha ta'limning viloyat va tuman bo'limlarida mutaxassis psixologlardan tashkil topgan metodik birlashma tashkil qilish kerak.

Maktabacha ta'lim tashkilotlarida korreksion mashg'ulotlarni o'tish uchun kunning ikkinchi qismida aniq vaqt ajratish kerak.

O'quv yili boshida psixolog uchun maxsus dars soatlari ajratilishi kerak (shtat ichida bo'lsa ham).

Diagnostik maqsadda o'tkaziladigan metodikalarning validligini tekshirib chiqish kerak. Ularni o'tkazish va natijalarini tahlil qilishda etnik xususiyatlarini, milliy mentalitet hisobga olish zarur. Shaxs xususiyatlarini va bilish jarayonlarini tekshirish har bir hududda bir vaqtda amalga oshirish kerak. Shunda natijalarnisolishtirib, tahlil qilish mumkin bo'ladi.

Trening mashg'ulotlarni ham moslashtirish zarur. Chunki ko'p trening-mashg'ulotlar o'g'il-qiz aralash ishtirok etishini taqazo qiladi. Bunda ko'pincha o'quvchi qizlar tortinadi va qatnashmaydi.

Fan to'garaklari qatori psixologiya faniqa oid qiziqarli to'garak tashkil qilinishi maqsadga muvofiq.

Psixologik xizmat haqida zamonaviy uslubiy qo'llanmalar yaratish zarur.

Yuqoridagilarni amalga oshirsak mamalakatimizda psixologik xizmat yanada rivojlanadi va biz ko'zlagan maqsadimizga erisha olamiz.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Vazirlar Mahkamasining 2019-yil 7-iyundagi "Psixologiya sohasida kadrlarni tayyorlash tizimini yanada takomillashtirish va jamiyatda huquqbuzarliklarning oldini olish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 472-son qarori. T.: 2019-yil

2. Nishanova Z.T., Alimbaeva Sh.T., Sherimbetova Z.Sh. Psixologik xizmat. Darslik. -T.: 2013 y. - 482 b. - 18 b.

3. G'oziev E. Ontogenez psixologiyasi: nazariy-eksperimental tahlil. T.: Noshir, 2010. - 360 b. - 177 b.

References

1. Resolution of the Cabinet of Ministers of June 7, 2019 No. 472 "On measures to further improve the system of training in the field of psychology and the prevention of delinquency in society." T .: 2019
2. Nishanova Z.T., Alimbaeva Sh.T., Sherimbetova Z.Sh. Psychological service. Textbook. -T .: 2013 y. - 482 b. - 18 b.
3. Goziev E. Psychology of ontogeny: theoretical and experimental analysis. T .: Noshir, 2010. - 360 p. - 177 b.